

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

# Tong Yulduzi

2013-yil 19-avgust  
N:33 (66938)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

## SENTABR ESHIK QOQMOQDA

22 yil

Quvnoq yozgi ta'tilni maroqli, mazmunli o'tkazib, yangi o'quv yilini yangi kuch-g'ayrat bilan boshlash arafasidagi o'g'il-qizlar qalbi hayajonda. Ayniqsa, ota-onalari olib bergan maktab formasi, portfel hamda o'quv qurollarini ko'rib, ko'zlari quvnaidi. Xalq ta'limi vazirligi va hamkor tashkilotlar tomonidan yurtimizdagi ko'plab umumta'lim maktablari, tuman va shaharlar markazlaridagi bozorlar hududida faoliyat boshlagan maktab yarmarkalarida sotilayotgan o'quv qurollarining sifati nafaqat o'quvchilarni, balki ularning ota-onalarini ham mamnun qilmoqda.

## BOLALARGA BAYRAM TUNHASI

Mustaqilligimizning 22 yillik bayrami arafasida Farg'ona shahrida yangi bolalar istirohat bog'i qurilib, foydalanishga topshirildi. Mazkur maskan farzandlarimiz uchun bayram sovg'asi bo'ldi.

Yangi istirohat bog'ida o'g'il-qizlarning ko'ngilli dam olishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Xorijdan keltirilgan turli attraksionlar, aftodrom, sport mashg'ulotlari zali, suv havzasi, futbol maydoni bolalar ihtiyorida. Bog' markazidagi rang-barang favvora dam oluvchilarga xush kayfiyat bag'ishlaydi.

Muhammadjon MAHMUDOV,  
Marg'ilon shahri

Yozgi ta'til kunlari yurtimizdagi barcha so'lim istirohat bog'lari kichikintoylarning eng sevimli maskaniga aylandi.

# FARZANDLARI QADR



OLMOS olgan surat

guvoh bo'lamiz. Mustabid tuzum hukm surgan davrlarda millat ozodligi, erkinligi haqida gapirishning o'zi mislsiz fojialarga olib kelar edi. Bugungi avlod o'z xalqi ozodligi,

qo'ynida farovon hayot kechirib, erkin ishlash, o'qish baxtiga muvaffaq bo'lgan.

Mustaqil mamlakatimizda inson qadr-qimmatini e'zozda. Har bir fuqaro konstitutsiyaviy huquqidan foydalanadi.

Siz o'g'il-qizlarning puxta bilim olishingiz, o'z iqtidoringizni namoyon etishingiz, miriqib dam olishingiz uchun yaratilgan sharoitlarni ko'rib, ko'zimiz

# TOPGAN YURT

Hademay xalqimiz mustaqilligimizning 22 yilligini keng tantana qiladi. Bu borada mamlakatimiz Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining yigirma ikki yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida»gi Qarori qabul qilindi. Ayni kunlarda respublikamizning barcha go'shalarida eng ulug', eng aziz bayramimizga qizg'in tayyorgarlik ishlari ketayapti.

E'tibor bergan bo'lsangiz, bu yilgi Istiqlol tantanalarining asosiy g'oyasi sifatida «Qadr-qimmatim, tayanchim va iftixorimsan, mustaqil O'zbekiston!» degan shior belgilandi.

Zero, inson qadr-qimmatini, sha'ni har nedan baland. Chunki inson mukarram zot qilib yaratilgan.

Ammo xalqimizning Istiqlolgacha bo'lgan yaqin o'timishiga nazar tashlaydigan bo'lsak, inson qadr-qimmatini, sha'ni poymol qilinganiga

mustaqilligi uchun kurashgan Behbudiy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy singari xalqparvar, millatparvar insonlarning taqdiri ayanchli tarzda yakun topganini adabiyot, tarix darsliklari, kinofilmlar orqali yaxshi biladi.

Sobiq sho'ro tuzumi davrida yosh-u qari, erkag-u ayol dalada erta tongdan kechgacha ishlashar, evaziga juda kam ish haqi olishardi. Bolalarning og'ir mehnatlarini aytmaysizmi?!

Bizning bolaligimiz o'tgan asrning 60-yillarida kechgan. O'quvchilik davrimiz paxta dalalarida o'tdi. Bahor keldi deguncha, maktab o'quvchilari yop-pasiga g'oz'a parvarishiga jalb qilin-ar, yozgi ta'til ham paxtazorlarda o'tardi.

Yangi o'quv yilining ilk kunlaridan o'qituvchi terimiga chiqib ketardik. Hatto 1-sinf o'quvchilari ham paxta terishar edi.

Endilikda-chi? Ozod, obod yurt

quvonadi. Vaholanki, bunday baxtga hamma ham musharraf bo'lavermaydi.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda 900 million nafar bola to'yib ovqat yeya olmaydi, 100 milliondan ziyod o'smir esa maktabga qatnash imkoniyatidan mahrumdir.

Shunday ekan, aziz o'quvchilar, mustaqilligimizning qadriga yetaylik, uni avaylab, asraylik!

Mustaqillik, erkinlik, ozodlik bo'lgan mamlakatda inson qadr-qimmatini e'zozlanadi, xalqi farovon turmush kechiradi. Osmoni musaffo, yurti tinch, osoyishta bo'ladi.

Ana shunday jannatmakon yurt O'zbekistondir! Go'zal, betakror O'zbekistonimizga aslo ko'z tegmasin!

**Yusuf HAMDAMOV,**  
**Mirzo Ulug'bek nomidagi**  
**O'zbekiston Milliy universiteti**  
**o'qituvchisi, dotsent**

## ISTIQLOL SOLNOMASI

1991-2013-yillar



1996-yil

Asaka shahrida avtomobil ishlab chiqarish zavodi ishga tushirildi. O'zbekiston jahon avtomobilsozlik sanoatiga ega davlatlar qatoriga qo'shildi.

1997-yil

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi kuchga kirdi. Unda yosh avlodni bilimli, vatanparvar, milliy va umumbashariy qadriyat-larga hurmat ruhida kamol toptirish, iste'dodini ro'yob-ga chiqarish kabi ezgu maqsadlar mujassam.

1-oktabr yurtimizda «O'qituvchi va murabbiylar kuni» sifatida keng nishon-lana boshlandi.

1999-yil

O'zbekiston Respubli-kasi Prezidentining «Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etish to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi.

## Muxbir safardan qaytdi

Bugungi kunda respublikamizning qay bir go'shasiga bormang, keng miqyosdagi bunyodkorlik ishlari guvoh bo'lasiz.

Istiqlol yillarida mazkur viloyatning shahar, tuman va qishloqlari qiyofasi ham tubdan o'zgardi. Zamon talablari darajasida qurilib, ko'kka bo'y cho'zgan osmono'par binolar ko'zni quvnatadi.

Safarimiz chog'ida viloyat markazidagi ko'chalardan birining ochilishi haqidagi xushxabarni eshitib, biz ham o'sha yerga oshiqdik. «Istiqlol» deb nom olgan mazkur ko'cha to'laligicha qayta ta'mirlanib, shaharliklarning sevimli maskanlaridan biriga aylanibdi. Quvonarlisi, mazkur ko'cha boshida «Kitoblar uyi» markazi qad rostlabdi. Markazdan yangi sotib olgan kitobini bag'riga bosgan chaqirib borayotgan bolajonlarning shodon qiyofasini bir ko'rsangiz edi...

Yusuf ABDULLAYEV

Andijonlik o'quvchilardan tahririyatimizga xat-xabarlar juda ko'p keladi. Viloyatda faol mualliflarimiz ham talaygina. O'quvchilarimiz bilan yuzma-yuz uchrashib, dildan suhbat qurishning gashtiga nima yetsin?! Shu maqsadda ijodiy safarimiz uchun dastlabki manzil sifatida Andijonni tanladik.

Safarimiz yozning so'nggi oyiga to'g'ri kelgan bo'lsa-da, havoning tafti baland. Lekin u viloyatning so'lim bog'lari, bahavo maskanlariga daxl qilmaganday. Ana shunday xushmanzara go'shalarda bolajonlar bilan muloqotlarimiz har galgiday samimiy kechdi. O'g'il-qizlar ta'tilda miriqib dam olishayotgani, turli to'garaklarga qatnab, hunar o'rganishayotgani haqida gapirib, «Tong yulduzi» yozda ham doimiy hamrohlari ekanligini ta'kidlab charchashmasdi. Ularning mahallalari, tuman va shaharlarida bo'layotgan ajoyib o'zgarishlar haqida to'lqinlanib so'zlashlari kishining zavqini keltiradi.

Viloyat maktablarida bo'lganimizda, yangi o'quv yiliga tayyorgarlik ishlari qizg'in borayotganiga guvoh bo'ldik.





## MUSTAQILLIK MEVASI

Erkin, ozodligimiz,  
Bilimga boyligimiz,  
Bizlarning shodligimiz –  
Mustaqillik mevasi.

Azim Toshkent bog'lari,  
Nur sochar chiroqlari,  
Obod yurt qishloqlari –  
Mustaqillik mevasi.

Sarafroz-u dugohlar,  
Bilim berar dargohlar,  
Ko'plab ziyoratgohlar –  
Mustaqillik mevasi.

Qancha olim-daholar,  
Yangi, zo'r ixtirolar,  
Ulkan, ko'rkam binolar –  
Mustaqillik mevasi.

**Adiba QURBONAZAROVA,**  
Sherobod maishiy xizmat kasb-hunar kolleji o'quvchisi

## YANGI O'QUY YILIGA SHAY

15-MAKTAB



Zuhra NISHONOVA olgan suratlari

*Aziz bolajonlar, mana, yozgi ta'til ham nihoyasiga yetib bormoqda. Ayni paytda jonajon bilim maskaningizni, mehdariyo ustozlar-u qadrdon sinfdoshlaringizni sog'inib qolgandirsiz-a? Hademay yangi rejalar-u o'zgacha ishtiyoq bilan ilm dargohiga qadam qo'ysangiz, to'liq ta'mirdan chiqqan, yanada chiroy ochgan maktabingizni ko'rib, hayratda qolsangiz, ajabmas.*

Poytaxtimizning Olmazor tumanida joylashgan 15-umumta'lim maktabi ham kapital ta'mirdan chiqarilib, o'quvchilarni kutib olish uchun shay holatga keltirildi. Maktab hududi obodonlashtirilib, yonatrofiga rang-barang gullar ekildi. O'quvchilar, mahalla faollari, xullas, barcha barcha ilm maskanining obodligi uchun yelib-yugurishmoqda. Bu ezgu ishlarga bosh-qosh bo'layotgan, hovlidagi gulzorini o'z qo'llari bilan barpo etgan maktab rahbari Ma'mura opa Nishonova ta'lim maskanida olib borilayotgan ishlar xususida quyidagilarni gapirib berdilar:

– Maktabimiz, ko'rib turganingizday, joriy o'quv yiliga shay. Barcha sinxonalar, laboratoriya, kompyuter xonalari, maktab oshxonasi to'liq ta'mirdan chiqarildi, – deydi ustoz.

Boshlang'ich sinflarda sanuzellar

o'rnatilib, foyelarda yangi stendlar, ingliz tilidagi bannerlar ilindi.

Joriy o'quv yilining yana bir yangiligi o'quvchilarimiz uchun o'ziga xos forma yaratildi. O'quvchilarga o'rnak bo'lishi uchun ustozlarning ham forma kiyishi joriy etildi. Bir xil kiyimdagi o'quvchilarga forma kiygan ustozning saboq berishini bir ko'z oldingizga keltirib ko'ring. Ajoyib manzara, shunday emasmi?!

– Yaratilayotgan shart-sharoitlar o'g'il-qizlarimiz bilim darajasining oshishi, dunyoqarashining kengayishi, komil inson bo'lib voyaga yetishlarida juda muhim, – deydi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Go'zal opa Jalilova.

Umid qilamizki, hademay shunday ko'rkam bilim dargohida yangi o'quv yilini boshlaydigan o'quvchilarimiz yangi-yangi yutuqlarni qo'lga kiritadilar.

**Nigora ABDUNAZAROVA**

## MUVAFFAQIYATIMNING ODDIY SIRI

**Behzod BOLTAYEV,**  
Toshkent pediatriya instituti qoshidagi  
2-akademik litsey o'quvchisi, 45-Xalqaro  
kimyo olimpiadasining oltin medal sohibi:

– G'alaba bilan yurtga qaytganimda, aeroportda keng jamoatchilik bizni tantanali kutib olgach, jurnalistlar: «Hayotdagi shioringiz qanday?», deya savol berishdi. Bugun tengdoshlarim, uka va singillarimga aytmoqchi bo'lgan gaplarimni ham shu savolga bergan javobimdan boshlamoqchiman...

Yurtboshimizning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarlaridagi «Insonning ikki qanoti bo'lsa, biri ma'naviyat, biri jismoniy yetuklikdir», degan fikrlarini hayotiy shior qilib olganman. Bilasizmi, chindan ham ana shu ikki ne'mat muvaffaqiyatlarimga qo'shqanot bo'ldi. Endi yutuqlarimning oddiy sirlari haqida to'xtalsam.

Inson kamolotining avvali oiladan ekanligi ayni haqiqat ekan. Dadam Matyoqub aka va onam Mohigul opa har kuni kechki ovqatdan so'ng biz bilan turli fanlar, sohalar yuzasidan suhbatlashishardi. Shu suhbatlar asnosida ham aniq, ham ijtimoiy fanlarga qiziq boshladim. 4-sinfda maktabda o'tkazilgan olimpiadada ona tili fanidan 2-o'rinni egallab, ilk yutuqni qo'lga kiritgandim. Yuqori sinfda matematika fanidan olimpiadada qatnashib, g'oliblikni qo'lga kiritdim. O'qituvchimiz Aqida opa Do'stmatova meni mo'jizaviy kimyo fani olamiga olib kirdilar. 2011-yil shahar bo'yicha «Eng bilimdon bitiruvchi» sifatida aziz dargohimni tamomladim.

Hozirda litseyda shu yo'nalishda tahsil olayapman, kelajakda shifokor bo'lish



A.HAMIDULLAYEV olgan surati

orzusidaman. Litseyimiz rahbari Ortiq aka Eshonqulov va ustozim Gulchehra opa Abdugarimova menga alohida e'tibor qaratib, maqsadga erishishimga yordam berishdi. Yurtimizda o'tkazilgan 47-Xalqaro Mendeleyev olimpiadasida kumush medalga sazovor bo'ldim, so'ngra Moskva shahrida o'tadigan 45-Xalqaro kimyo olimpiadasiga tayyorgarlik ko'ra boshladim. Shu kundan boshlab dam olish paytim faqat sport bilan shug'ullanadigan vaqtim bo'ldi. O'mi kelganda aytay, men bolaligidan taekvandoning ITF turi bilan shug'ullanaman. Ushbu sport turi bo'yicha uch bora O'zbekiston chempioni bo'lganman. Sport, tinimsiz o'qib-o'rganganim, qolaversa, yurtimizda biz yoshlarga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor, Istiqlol bergan imkonlar tufayli bugun shunday nufuzli xalqaro olimpiadada oltin medalni qo'lga kiritdim.

Aziz tengdoshim, yuqorida menga berilgan savolni Siz ham o'zingizga berib ko'ring, maqsad va marralarni katta olib, men kabi yurtimiz faxriga aylinish baxtiga sazovor bo'ling!

## TENGDOSHLARIGA O'RNAK BO'LMOQDA

Andijonlik yosh, umidli ijodkorlardan biri Asmarbek Hakimov Paxtaobod tumanidagi 13- maktabning 9-sinf o'quvchisi. Ta'tilda esa viloyat «Taraqqiyot» televideniyesida bolalarga mo'ljallangan sahifalar tashkil etib, barcha tengdoshlariga o'rnak bo'lmoqda. O'tgan 2012-yilimiz Asmarbek uchun juda omadli keldi. Bundan tashqari u viloyatning bosh gazetalarini – «Andijonnoma» hamda «Andijanskaya pravda» tahririyati qoshida tashkil etilgan «Jurnalistik mahorat markazi»ni sertifikat bilan tamomladi. «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivalining nazm yo'nalishi g'olibi bo'ldi. Uning kelajakdagi orzulari ulkan – Vatanimizni madh etuvchi ijodkor bo'lmoqchi.

Biz esa Asmarbekka o'qish va ishlarida omad tilab qolamiz.

**Isfandiyor BURGUTOV,**  
Andijon shahri





# BOLALARNING SEVIMLI OSHIYONI

**ISTIQLOL SOLNOMASI**  
1991–2013-yillar



2001-yil

Yurtimiz yoshlarini Vatan ravnaqi yo'lida birlashtirish maqsadida «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tuzildi.

Harakat yoshlarni o'z mustaqil fikriga, e'tiqodi va qarashlariga ega o'g'il-qizlar qilib tarbiyalash, ijtimoiy-huquqiy manfaatlarini himoyalash, kasb-hunar egallashi, intellektual salohiyatini namoyon etishi uchun maqsadli loyihalarni amalga oshirib kelmoqda.

Yurtimizda birinchi milliy internet festivali o'tkazildi.

2002-yil

«Qariyalarni qadrlash yili» deya nom olgan mazkur yilda nuroniy otaxon-u onaxonlarimizni ijtimoiy himoyalash, salomatliklarini muhofazalash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Poytaxtimiz Toshkentda «Shahidlar xotirasi» majmuasi tarkibida «Qatag'on qurbonlari xotirasi» muzeyi tashkil qilindi.

Maktab o'quvchilari o'rtasida birinchi «Umid nihollari» sport musobaqalari bo'lib o'tdi.

Yurtimiz bolalarini sportga yanada ko'proq jalb etish, bolalar sportini rivojlantirish, yosh, umidli sportchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tuzildi.

Bugun Istiqlol tufayli yurtimizda bo'layotgan katta o'zgarishlar, yangilanishlarga barchamiz guvoh bo'lib turibmiz. Nafaqat yurtdoshlarimiz, balki xorijliklar e'tirofiga ham sazovor bo'layotgan bunyodkorlik ishlari, muhtasham binolarning qad ko'tarishi, qishloq joylarida ham poytaxtdagidan qolishmaydigan akademik litsey, kasb-hunar kolleji va maktablar qurilishi bunga yorqin misoldir. Ayniqsa, kelajagimiz vorislari bo'lmish yoshlarimiz kamoloti yo'lida ko'plab ezgu ishlar amalga oshirilmoqda. Bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda. Respublikamizning barcha viloyatlarida «Barkamol avlod» bolalar markazlarining tashkil etilishi so'zimizning isbotidir. Ayni ta'til kunlarida Respublika «Barkamol avlod» bolalar badiiy ijodiyot markazi bolajonlarning eng sevimli oshiyoniga aylangan. Istiqlol bayrami arafasida ushbu maskanning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Nasiba opa Shomansurova bilan mustaqillik yillarida bu go'shada yuz bergan o'zgarishlar, yangiliklar haqida suhbatlashdik.



chilarimizning yutuqlari ham talaygina. To'ychi Inog'omov nomli doirachilar to'garagi, «Yulduz» bolalar raqs dastasi, «Chaman» namunali bolalar havaskorlik xalq dastasi, «Boychechak» xor jamoasi, «G'uncha» vokal-cholg'u va o'zbek xalq cholg'u asboblari dastalari nafaqat respublikamizda, balki MDH davlatlaridagi tengdoshlari orasida ham tanilib ulgur-gan. Markazimizdagi to'garaklar a'zolari rivojlangan davlatlarda bo'lib o'tgan ko'rik-

– Nasiba opa, viloyatlardagi «Barkamol avlod» bolalar markazlari haqida ham to'xtalsangiz.  
– Respublikamiz viloyatlarida 211 ta «Barkamol avlod» bolalar markazlari faoliyat olib boryapti. U yerlarda kasb-hunar sirlarini o'rganayotgan o'g'il-qizlarning erishayotgan yutuqlari ham talaygina.  
– O'quvchilarimizga bayram tilaklaringiz...  
– Bugunning bolalari tirishqoq, intiluvchan yoshlar.

– Nasiba opa, avvalo, markazning Istiqloldan avvalgi va keyingi yillardagi faoliyati haqida gapir-sangiz...  
– Tarixga nazar soladigan bo'lsak, 1935-yilda yurtimizda o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularga qiziqqan hunarlari bo'yicha dastlabki kasb bo'nikmalarini o'rgatish maqsadida Respublika O'quvchilar saroyi tashkil etilgan bo'lib, u yerda 7 yillik musiqa, 2 yillik gimnastika maktablari, drama, raqs, tasviriy san'at va texnikaga oid bir nechta to'garaklar faoliyat yuritgan. Keyinchalik o'quvchilar istaklari va qiziqishlari inobatga olinib, saroydagi to'garaklar soni orta bordi. 1980-yilda poytaxtimizning markaziy ko'chalaridan birida maxsus qubballi bolalar observatoriyasi, 200 o'ringa mo'ljallangan kino-

zal, ommaviy mashqlar uchun xonalar, xoreografiya va ko'rgazmalar zalini o'z ichiga olgan bino qurilib, bolalar ixtiyoriga topshirildi. Bu bino 2011-yil 1-iyundan e'tiboran Badiiy ijodiyot yo'nalishidagi Respublika «Barkamol avlod» bolalar markazi nomi bilan faoliyat yurita boshladi.  
– Ta'til kunlariga qaramay, markazga kelayotgan o'quvchilar soni talaygina. Bu, albatta, markazdagi to'garaklarning faolligiga bog'liq bo'lsa kerak-a?  
– Albatta, bugungi kunga kelib, markazda 32 turdagi to'garaklar faol ishlab turibdi. To'garakka qatnaydigan o'quv-



tanlovlarda ham qatnashib, sovrinli o'rinnlarni egallashgan. Jumladan, Germaniyaning Frankfurt shahrida bo'lib o'tgan xalqaro folklor bolalar festivalida ishtirok etgan «Yulduz» folklor xalq raqslari to'garagining 2 nafar a'zolari hamda 2 nafar «Folklor» doirachilar to'garagi a'zolari «Eng maf-tunkor guruh» nominatsiyasiga munosib topilib, maxsus kubok bilan qaytishdi.

Ularining ko'zlaridagi jo'shqinlikni ko'rib, g'ayratim jo'shadi. Bor kuch-g'ayratimni mana shu qorako'z farzandlarimizga tortiq qilayotganimdan boshim ko'klarga yetadi.  
O'quvchilarimizning doimo o'qib-izlanib, ilm-u hunar cho'qqilarini egallashlarini istayman.

LAYLO suhbatlashdi.  
Z. NISHONOVA  
olgan suratlar

# BESH YILDAN SO'NG...

Bundan roppa-rosa besh yil muqaddam

«Barkamol avlod» Respublika bolalar badiiy ijodiyot markazi qoshidagi «Yulduz» folklor raqs dastasi a'zosi 6 yoshli Barno Mamajonova «Yangi avlod – 2008» bolalar ijodiyoti festivali g'otibi bo'lgandi. Bu haqda gazetamizda «Yulduz»ning Barno qizi» nomli maqola ham bosilgan edi.

Fahririyatimizga quvnoq kayfiyatda kirib kelib, har bir xodim bilan qardorlardek, samimiy salomlashgan qizni avvaliga taniyotmadik. O'zini tanishtirgach, Barno ismli o'sha iqtidori qizaloq ekanligini bildik.



poytaxtimizdagi 59-davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabining 5-«B» sinf o'quvchisi Barnoxon Mamajonova qanday yutuqlarga erishdi?

2010-yilda Toshkentda o'tkazilgan xalqaro festivalda «Yulduz» folklor raqs dastasi qizlari g'oliblikni qo'lga kiritdi. 2011-yilda Polshada o'tkazilgan «Bahorgi yulduzlar» festivalida yakkaxon sifatida «Qush» raqsini ijro etib, faxrli o'ringa loyiq deb topildi. Shu yili Chexiyada o'tgan tanlovda guruh qizlari «Andijoncha», «Xorazmcha», «Buxorocho», «Surxoncha» kabi milliy raqslari bilan birinchi o'rin sohibalari bo'lishdi.

Yaqinda esa O'zbekiston

Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «Barkamol avlod» Respublika bolalar badiiy ijodiyot markazi hamkorligida o'tkazilgan «Milliy raqslar» Respublika ko'rik-tanlovida «Yulduz»ning qizlari «Popuri» yo'nalishida har bir viloyat raqslarini ijro etishdi. Barnoxon «Xorazmcha», «Farg'ona» raqslarini ijro etib, faxrli o'ringa munosib topildi.

Bu intiluvchan qizimiz raqs sirlarini o'rganish bilan birga «Bolalar vaqti», «Bolalar shaharchasi» kabi ko'rsatuvlarda boshlovchilik ham qiladi.

Barnoxondan: «Raqs, boshlovchilik – bularning bari yaxshi. Biroq, maktabdagi darslarni ham unutmashlik kerak. 4-sinfni qanday baholar bilan yakunladim?», deb so'raganimizda: «Men uchun maktabdagi saboqlar, kitob o'qish doimo birinchi

galda turadi. Nafaqat 4-sinfni, balki quyi sinflarini faqat a'lo baholar bilan yakunlaganim shundan. Qolaversa, Toshkent shahar Xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan o'tkazilgan «Yilning eng yaxshi bilimdon o'quvchisi» ko'rik-tanlovining I darajali Diplomini, maktabda o'tkazilgan boshlang'ich ta'lim fan oyiliga «Yosh iqtidor egalari» ko'rik-tanlovida birinchi o'rinni qo'lga kiritdim», deydi kamtarona jilmayib.

Barnoxonning o'qish va ijodiy ishlariga parvozlilar tilar ekanmiz, san'atning sirli olami seni hech qachon tark etmasin, betakror raqslaring bilan dunyo kez. O'zbekiston nomini yanada ulug'la, deymiz.

Feruza SOYIBJON qizi

– «Tong yulduzi» menga hamisha qanot bag'ishlaydi, – dedi u samimiyat bilan. – Dastamiz bilan respublikamizning turli viloyatlariga, chet el safarlariga chiqqanimizda, tengdoshlarimga men haqimda maqola bosilgan gazetani ko'rsataman. Barchaning ko'zidagi havas meni yanada olg'a intilishimga turki bo'lib kelyapti. Qo'lga kiritgan yutuqlarim uchun gazetamdan minnatdorman!

Xo'sh, o'tgan davr mobaynida

## Orzu

### U KIRGAN XONADONDA.

Ertaklarda o'qiganimday, agar oltin baliq yoki sehri chiroqdagi jinni uchratsam-u, u «tila tilagingni» desa, eng katta kitob do'konidan istaganimcha kitob olish imkonini ber, degan bo'lardim. Shunda har safar kitob do'koniga kirib, bir-biridan mazmunli va chiroyli asarlardan imkoniyatimga qarab bir-ikkitasini xarid qilib, barchasini ololmaganimga achinmasdim.

Buvijonimning maslahatlariga ko'ra, har gal oylik maoshimdan bittagina bo'lsa ham kitob sotib olishga harakat qilaman, yoqtirganlarimdan bittasini tanlashga majbur bo'laman. Farzandimga ham «Bolalarning katta kitobi», «Mening birinchi kitobim», «Jonivorlar olami» kabi kitoblarni olib bergim keladi. Toma-toma ko'l bo'lur, deganlariday, bir kun xonadonimda mo'jazgina kutubxonam bo'lishini, u farzandlarim uchun ham eng katta boylik bo'lishini istayman. Bu orzu bolaligimda «Sohibjamol qiz va maxluq» multfilmni ko'rganimdayoq tug'ilgan edi. Eslang, sohibjamol qiz saroyning katta kutubxonasidagi kitoblarni ko'rib, hayratdan ko'zi charaqab ketadi. Men ham kitob do'koniga kirsam, ana shunday holga tushib, istaganimcha kitob olgim kelaveradi. Albatta, kitob kirgan xonadonda fayz-u baraka, totuvlik, birdamlik, o'zaro hurmat kabi ezgu fazilatlar kurtak otadi.

QIZLARXON

## Taassurot

### POYTAXTDA O'TGAN TA'TIL

Yoz chillasi ayni zabtiga olgan kunlarning birida tahririyatimizga olis Xorazmdan mehmonlar kelishdi. Muxlisimiz Yulduzxon Abdalyozova Urganch tumanining Yuqorido'rmon qishlog'ida joylashgan 4-maktabning 5-sinf o'quvchisi ekan. U otanasi bilan birgalikda ta'til kunlarida Toshkentga kelibdi. Ularning safari ham aynan Mustaqillik maydonidan boshlanibdi. Yulduzxon poytaxtimizdagi osmono'par, muhtasham binolar, rang-barang favvoralarini ko'rib, yurtimizning kundan kunga chiroy ochib borayotganidan quvonibdi. Istirohat va hayvonot bog'larida bo'lib, ko'ngildagidek hordiq chiqaribdi. Faqat akasi va opasini ham Toshkentga olib kelishmaganidan afsuslanibdi. Qishloqqa qaytgach, poytaxtimiz haqida ularga, dugonalarga so'zlab berishni niyat qilindi. Qahramonimiz qadim Xorazmda ham bugun ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilayotganini ta'kidlab, o'zi ham kelajakda yurtimiz ravnagiga hissa qo'shish niyatida ekanini bildirdi. Buning uchun esa yangi


o'quv yilida yaxshi o'qishni rejalashtirgan bo'lsa, ta'tilda «Oltin beshik» nomli hikoyalar to'plami, ustoz Zumrad Masharipovning «Yurak bilan suhbat» kitobini va «Dilimdagi g'unchalalar» kabi kitoblarni o'qib chiqdi. Yangi o'quv yiliga puxta tayyorgarlik ko'rayotgan Yulduzxon poytaxtimizdagi do'konlardan bir-biridan chiroyli o'quv qurollari ham xarid qilibdi.

Eh, xullas, ta'tilning so'nggi, bayramning esa oldi kunlarini shunday zavqli o'tkazgan Yulduzxon gazetamiz orqali ayyom bilan tengdoshlarini tabriklashni niyat qilgan ekan. Biz esa muxlisamizni, u orqali xorazmlik o'g'il-qizlarni bayram bilan muborakbod etamiz!

Manzura UBAYDULLAYEVA.  
Z. MAMATQULOVA olgan suratlar

# BOLALIGIM ERTAKLARI

(Qissa)



## KUNGAYDAGI HUJRA

## CHAYON QOVURDOQ

Ko'chaning kungay tarafida yiqilay deb turgan bir hujra bor. Yo'lovchilar uning yonidan tezroq o'tib ketsam, deydi. Bu hujrada er-xotin moxovlar yashaydi. Hujra eshigiga tashqaridan qulf urilgan. Qulfni allaqachon zang bosgan. Uni kim, qachon qulflaganini hech kim bilmaydi. Kaliti soygami, quduqqami tashlab yuborilgan, deyishadi. Moxovlar odamlarga qo'shilmasin deb shunday qilishgan. Moxovi yuqarkan-da. Ammo Hujraning kichkinagina tuynugi doimo ochiq turadi. Ularga nasiba shu tuynukdan kiradi. Hujraning ichi kunduz kuni ham qorong'i ko'rinadi. Tokhasida chetlari uchgan, chegalangan sopol kosalar qalashib yotadi. Odamlar shunaqa tashlab yuboradigan idishlarda ovqat olib kelib, tuynukka qo'yib ketishadi. Tuynukdan ichkariga kirgan buyum qaytib chiqmaydi. Moxovlarning o'zi ham. Ichkarida latta-puttalarga o'ralib goh erkak, goh xotin moxov tuynukka tikilib o'tiradi. Bu hujra qanchalik qo'rqinchli bo'lmasin, biz bolalarga tekin tomoshaxona. Bir-birimizni turtkilashib, qayta-qayta tuynukka ro'para bo'laveramiz. Moxovlar bizni qo'l ishoralari bilan xuddi tovuqni kish-kishlagandek haydashadi. Ha, ularning tovushiyam chiqmasligi kerak. To tashqaridagilar qo'llariga xivchin olib bizni qovlab solmaguncha shu yerda o'ralashaveramiz.

Men har safar erta bilan hujra yonidan o'tganimda, ataylab ichkariga mo'ralayman. Tilanib o'tirgan moxov biron narsa olib keldi, shekilli, deb «yarq» etib qaraydi. Ko'zlari ich-ichiga tushgan, milkklarining go'shti chiqqan, qontalash, og'zining atrofi yara-chaqa... Qo'rqib ketaman. Bu moxov xotin. U yoz chillasida ham boshiga shol ro'mol tashlab o'tiradi. Biz moxovlarni ko'raylik deb har xil bahonalarni o'ylab topamiz. Eng yaxshi bahona bu chayon ovi. Eski devorlarning tagini kovlab chayon axtaramiz. Uni gugurt qutisigami, konserva bankasigami solib, to's-to'polon bilan tuynukka qarab chopamiz. Aytishlaricha, moxovlar o'zlarini chayonga chaqtirib turishar ekan. Har safar qanday qilib chaqtirishini ko'rmoqchi bo'lamiz-u, ko'rolmaymiz. Lekin har gal tortishganimiz-tortishgan, moxovlar chayonga qayerini chaqtirishadi? Bu biz uchun qiziq.

– Oyog'idan chaqtiradi, oyog'idan, – deymen men nimagadir.

– Hechamda, o'zlari shundog'am zo'rg'a yurishadi-ku! Qo'llaridan chaqtirishsa kerak, qo'llaridan.

– Yo'q, yo'q...

– Nimaga yo'g'akan?

– Ularni bit bosgan, bit.

– Nima, seni bit bosmaganmi?

– Shuni aytaman-da. Qo'lidan chaqtirsa, qichigan joyini qanday qashiydi? – deb haligi bola qo'ltig'ini qashib qo'yadi.

– Rost-ey, qo'lidan chaqtirsa, och qoladi-ku...

Qanday qilib ovqat yeydi?

– E-e-e... ularning kallasi sog'larnikidan yaxshi ishlaydi. Ular moxovgina, xolos.

– Nimaga moxovlarning qo'li bilan oyog'iga yopishib oldirlari? Bilishimcha, qornidan chaqtiradi. Qachon qarasang, qorni do'mbira bo'lib, shishib o'tiradi...

– Senlar bilmaysanlar, oyog'idan chaqtiradi, – deb men o'z so'zimdagi qattiq turib oldim. Nimaga deganda, men shu paytgacha kimni chayon chaqqan bo'lsa, oyog'idan chaqqanini eshitganman. Qo'lidan, qornidan, belidan chaqqanini eshitmaganman. Ammo xato qilayotganimni bilmas edim. Chayon yerda o'rmlab yurgani uchun ham faqat oyoqdan chaqishini bilmasdim. Bu dunyodagi jonivorlar xavf va xatarni o'ziga qulay tomondan daf qiladi. Itlar odamning iligiga tashlanadi. Buqalar odamning qornini mo'ljalga oladi... Otlar orqa oyog'i bilan odamning peshanasini...

– Bekor aytibsanlar, moxovlar hech yeridan chaqtirmaydi. Chayonni tovada qovurib yeyishadi...

– U-u-u...

– Vah!..

Hamma hayratdan baqa bo'lib qoldi. Bu yangi gap Sodiqov degan oliftadan chiqqan edi. Uning otasi boyvuchcha Sodiqov bo'lib tanilgan. O'g'liyam Sodiqovman, deb kerilib yuradi. O'qituvchilar ham boshqa bolalarni ismi bilan chaqirganda, uni «Sodiqov» deb yo'qlashadi. Men Sodiqovni o'lgudek yomon ko'raman. Ichimda unga shunday bir alam borki... U shunchaki mushtlashish yoki bo'ralab so'kish bilan yozilmaydi. Bunga uning maqtanchoqligi-yu o'z zimning ahmoqligim sabab bo'lgan. Bir kuni u oyog'iga butsiyi, qormiga katta harfda «D» deb (u «Dinamo» degan mashhur futbol

komandasining belgisi) yozilgan futbolka kiyib, yangi charm ko'ptokni ko'z-ko'z qilib ko'chaga chiqdi. Ayacham bozorga ipak ip olib kelgani ketib, ozgina o'ynab olishga imkon topgan edim. Bolalar uni to'rt tarafdin o'rab, butsiysiga, futbolkasiga, ko'ptogiga mahliyo bo'lib qolishdi. Silab-siyab ham ko'rishdi. Bunaqa kiyimlarni biz katta futbolchilarning ustidagina ko'rardik-da. Sodiqov bo'lsa ko'ptogiga hech kimni yaqinlashtirmadi. Bir o'zi havolatib-havolatib tepib o'ynayverdi. Ko'ptogi zo'rigidan har tepganda jangillab ovoz chiqarardi. Bolalar undan arazlab ketib qolishdi. Men ayacham qidirib qolishidan qo'rqib, uzoqqa ketolmadim. Sodiqov ko'ptok tepar, tez-tez cho'ntagiga qo'l solib qizil uvildiriq (ikra)ning qo'qisidan og'ziga tashlab olardi. Bir marta partasining tagida uvildiriq qo'qisini qoldirib ketganida, olib yeb, mazza qilganman, sho'rtang, yog'lik narsa bo'larkan. Sodiqov bexosdan ko'ptokni men turgan tomonga tepib yubordi. Ko'ptok shundoqqina yonimdan o'tib, nariga borib tushdi. «Qaytarvor», dedi erinib. Men ko'ptokni tepishdan ko'ra shundoq ushlab ko'rishga ham zor edim. Uni qo'limga olib, changlarini ardim. Yangiligidan charm hidlari gupillab turardi. Tap-tarang, yep-yengil. Shunga bo'lsa kerak, Sodiqovning oyog'i tegsa yoq osmon-u falakka uchyapti-da. Bunaqa ko'ptokni tepib bo'larkanmi? Faqat yostiqning tagiga qo'yib yotish mumkin, tepishmish-... Men ko'ptokni avaylab olib bordim-da, Sodiqovning qo'lga tutdim. U imo bilan oyog'ining tagini ko'rsatdi. Keyin cho'ntagini kavlab, anavi mazali narsadan tirmoq-dayini menga uzatdi. Shunday qilib, u ko'ptokni havolatib uzoqqa tepar, men bo'lsam, olib kelib berar, u har safar anavi narsadan menga bergan bo'lardi. Men bu mehribonchilik nima bilan tugashini bilmay, Sodiqov bilan chiqishib qoldim, deb xursand edim. Oxiri shunday bo'ldiki, Sodiqov ko'ptogini menga ishonib, «Hali maktabga oborarsan», deb o'zi uyiga kirib ketdi. Birpasga bo'lsa ham shunday matohga ega bo'lganimdan boshim osmonda edi. Men har doim birinchi soatga zo'rg'a yetib borardim. Ikkinchi smenada o'qirdik. Har safar sinfga qisilib, qimtinibgina kirib, joyimga o'tirardim. Bu safar bir qo'limda jild, bir qo'limda charm ko'ptok bilan qaddimni g'oz tutib kirib bordim. Bolalar meni ko'rishi bilan: «Sodiqovning malayi, Sodiqovning malayi», deb kalaka qila boshlashdi. Faqat To'xtasingina indamadi.

(Davomi bor)

Surxondaryo viloyati yurtimizning eng olis hududlaridan biri bo'lib, Istiqlol yillarida bu vohada ham ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Viloyatning barcha shahar-u qishloqlari o'zgacha qiyofa kasb etib, tanib bo'lmas darajada chiroy ochdi. Yangidan qad rostlagan ta'lim maskanlari, sport inshootlari, namunaviy loyihalar asosida bunyod etilgan turarjoy binolari, bog'-u rog'larni ko'rib, aqlingiz shoshadi. Bunday xayrli va ezgu ishlar o'tgan qisqa fursatda amalga oshirilganiga kishining ishongisi kelmaydi.

Mustaqillik bergan keng imkoniyatlar tufayli surxondaryolik yoshlarning ham dilidagi orzulari, ezgu maqsadlari o'z ijobatini topib borayotgani quvonarlidir. Bugun qalbmizni faxr-u iftixorga to'ldirib, vohadan ko'plab iste'dod egalari yetishib chiqayotgani barkamol avlod tarbiyasi yo'lida qilinayotgan ezgu ishlar samarasidir.



Ana shunday yoshlardan biri Sarvinoz Shaydullayeva tug'ilib o'sgan oilani, haqiqiy sportchilar oilasi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Oila boshlig'i Jumanazar Massiyev fermer xo'jaligi rahbari. U sportning sambo turi bilan muntazam shug'ullanadi. Angor tumanidagi 3-ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabida yosh avlodga boshlang'ich ta'limdan saboq berib kelayotgan oila bekasi Oliya Choriyevaga ham sport unchalik begona emas. U yengil atletika bo'yicha O'zbekiston chempioni bo'lgan. Oiladagi sog'lom muhit, qolaversa, yurtimizda yaratilgan ulkan imkoniyatlar sabab farzandlar ota-onasidan-da ko'proq yutuqlarni qo'lga kiritishdi.

Farzandlarning to'ng'ichi bo'lgan Sarvinoz maktabda o'qib yurgan kezaridayoq sportning karate, kombat aykido va real aykido turlari bilan muntazam shug'ullana boshladi. Ba'zan mashg'ulotlardagi og'ir yuklamalar sabab, u uyiga charchab kelar, hatto bir necha bor sportni tashlashga qaror ham qilgandi. Lekin Jumanazar aka va Oliya opa har safar qizlariga dalda bo'lib, uni orzulari sari ruhlantirishar, mashq-qatlarsiz maqsadga erishib bo'lmasligini tushuntirishardi. Ularning so'zlaridan ruhlangan Sarvinoz qat'iy ishonch bilan yana mashg'ulotlarga kirishib ketardi.

Yosh sportchi ilk yirik g'alabasini

## CHEMPIONLAR OILASI



2009-yil Qarshi shahrida real aykido bo'yicha Sohibqiron Amir Temur xotirasiga bag'ishlangan O'zbekiston ochiq chempionati musobaqasida qo'lga kiritib, I darajali Diplom hamda oltin medalga sazovor bo'ldi. Ushbu g'alaba Sarvinozni yangi marralar sari undadi. U o'sha yili real aykido bo'yicha O'zbekiston ochiq kubogida ham oltin medalga sazovor bo'ldi.

Bu g'alabalari orqali mutaxassislar nazariga tushib, O'zbekiston terma jamoasi tarkibidan o'rin oldi. Yosh sportchi xalqaro musobaqalarda ham ona Vatan sha'nini dildan his etib, doimo g'oliblik sari intildi. U 2012-yil 26-29-aprel kunlari Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tgan Xalqaro kombat aykido

bo'yicha Yevrosiyo 6-olimpiada kubogi musobaqasida I darajali hamda 2 ta III darajali Diplom, oltin va bronza medallarga sazovor bo'ldi. Sarvinozning shu kunga qadar respublika va xalqaro miqyosdagi turli musobaqalarda 24 ta oltin, 10 ta kumush va 11 ta bronza medalini qo'lga kiritgani tahsinga loyiqdir.

Mazkur «Obod turmush yili»da Sarvinoz Shaydullayevaning sportda erishgan muvaffaqiyatlari davlatimiz tomonidan e'tiborga olinib, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlangani yosh sportchi hayotidagi eng quvonchli voqealardan biri bo'ldi. Bu xushxabarni nafaqat uning yaqinlari, balki barcha angorliklar katta xursandchilik bilan qarshi olishdi.

Yurtboshimizning shu yil

O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi Homiylik Kengashi majlisida so'zlagan ma'ruzasida: «Yaqinda Toshkentda Xotin-qizlar bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zga chiqqan S.Shaydullayevaning fikrlariga e'tibor beradigan bo'lsak, uning qanday ishonch bilan o'z yurti haqida faxr bilan gapirgani barchamizni mamnun etadi...», degan so'zlari barcha o'zbek qizlarini to'qinlantirib yubordi.

Opasining erishgan muvaffaqiyatlaridan ruhlanib, singillari Gulruxsor va Muslima, ukasi Mirzaolim ham sportga mehr qo'yishdi. Gulruxsor bilan Mirzaolim kombat aykido sport turi bilan shug'ullanishsa, Muslima yengil atletika mashg'ulotlariga qatnmaydi.

Yaqinda orzulari olam sportchi qizimiz yana bir maqsadiga erishdi: O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi Akademiyasiga o'qishga qabul qilindi.

Bolaligidan ichki ishlar xodimi bo'lishni, yurt tinchligi yo'lida sidqidildan mehnat qilishni niyat qilganman. Orzum amalga oshib, bu yil O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi kursanti degan nomga sazovor bo'ldim. Ushbu sharaflari nomga loyiq bo'lib, o'z burchimni to'la ado etishga va'da beraman, - deydi Sarvinoz Shaydullayeva.

Sport insonni nafaqat jismonan, balki ma'nan ham kamolga yetkazadi. Bunga Sarvinozning erishgan muvaffaqiyatlari misolida yana bir karra amin bo'ldik. Niyatimiz, yurtimizdan ana shunday iqtidor sohiblari ko'plab yetishib chiqaversin!

Sa'dullo TURSINOV

## TA'TIL MAROQLI O'TDI

Namangan shahrida Viloyat madaniyat va sport ishlari boshqarmasi, O'zbekiston havaskor va professional muaytay assotsiatsiyasi viloyat bo'limi, Sharq yakkakurashlari va jang san'atlarini rivojlantirish markazi hamkorligida 10-12 yoshli bolalar o'rtasida muaytay bo'yicha viloyat chempionati bo'lib o'tdi. Mazkur musobaqada viloyatning barcha shahar, tumanlaridan 85 nafar o'g'il-qiz 17 vazn toifasida o'zaro kuch sinashdi.



Qizg'in kechgan bellashuvlar yakuniga ko'ra, Nabi Nabijonov, Muhammad Kamolov, Jamshid Mahmudxonov, Abubakir Abdug'afforov, Ibrohim Habibullayev, Hayotbek Bekpo'latov, Adham Asqaraliyev, Bobur Husanboyev, Abdunabi Ibrohimov, Ulug'bek Mashrabboyev, Diyor Mo'ydinov, Ayub Milanov, Abdurasul Abdulhamidov, Shahzoda Haydarova, Asqarali Boydadayev, Jamshid To'xtaboyev, Kumushoy To'rabekova barcha raqiblarini yengib, shohsupaning yuqori pog'onasiga ko'tarilishdi.

Bu kabi musobaqalar o'quvchilarning yozgi ta'til kunlarini maroqli va mazmunli o'tkazish, sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish, muaytay bo'yicha viloyat terma jamoasiga zaxira sportchilarni tayyorlashga yaqindan yordam beradi.

Shoh MUHAMMAD

### Tabriklaymiz! Qutlaymiz!



Anvar MIRZAZODA (Mirzayev) respublikamizda taniqli krossvordlar ustasi hisoblanadi. Hamkorlikda boshqotirmalar tuzib, bu sohani rivojlantirishda hissamiz bor. Anvar aka serqirra ijodkor. Bolalarga bag'ishlangan topishmoqlari, tez aytishlari bilan ham o'quvchilarga yaxshi tanish. Bu yil krossvordning yuz yoshli bayrami va hamkasbimizning qutlug' 65 yoshi bilan tabriklaymiz. Uzoq umr, ijodiy barkamollik tilaymiz.

Foziljon ORIPOV

## MENING VATANIM

Zebuniso TOHIRIYON

Manuchehr kuchukhasidan so'radi:

– Sen qayoqdan kelding, Vatanning qayer?

Kuchukcha javob berdi:

– Men sizning hovlingizda ko'z ochdim, mehringizni his qildim. Demak, mening Vatanim mana shu hovli.

Manuchehr chumolining yoniga oshiqdi va uni savolga tutdi:

– Chumolijon, ayt, sen qayerdan kelding? Tug'ilgan manziling qayerda?

– Men uyingizning devori yonidan in qurganman. Shu xonadonda riz-qimni terib, ulg'aydim. Mening Vatanim shu tuproqdir.

– Juda yaxshi! – dedi Manuchehr, so'ng otasining yoniga chopdi.

– Otajon, – dedi u hayajonlanib.

– Siz tug'ilib o'sgan tuproq qayer?

– Biz shu zaminda dunyoga keldik. Demak, Vatanim – shu ona yurt O'zbekiston, – javob berdi otasi.

– Eh-he-he, do'stlar, jo'ralar, – deya qichqirdi Manuchehr. – Mening Vatanim qayer ekanini bildim. Bizning uyimiz, hovlimiz, qishlog'imiz, purviqor tog'larimiz, bularning barchasi men uchun aziz Vatandir.

«Eh-he-he, bu mening Va-ta-nim», deya sado keldi tog'lardan go'yo yer-u osmon uning so'zlarini tasdiqlayotgandek. Borliq Vatan so'zidan yaralgandek edi...

Tojik tilidan AXTAMQULI tarjimasida



### TOPISHMOQLAR

Quyosh aksi bor,  
Nurlar raqsi bor.  
Dasturxon fayzi,  
Ko'pning rizqi bor.



Yashil po'sti bor,  
Qizil go'shti bor.  
Uyda, bozorda,  
Yaqin do'sti bor.


### TEZ AYTISH

Safsar suvsar,  
Suvda suzar.  
Suvda o'zar,  
Suvda suvsar.




## BOSHQOTIRMA

Sehrli kvadratda faqat to'rt harfli sinonim so'zlar yashiringan. Fursat so'zining o'nga yaqin sinonimi mavjud. Ulardan to'rttasini kataklarga joylashing.



1		a	
2	a		
3		a	
4			a



Rangli shakllardan foydalanib, to'rtta so'z o'qing.

Tuzuvchi:  
Anvar MIRZAZODA

### ONA ZAMIN NE'MATLARI

Aziz bolalar, siz sevib iste'mol qiladigan yeryong'oq aslida yong'oq emas, balki dukkakli o'simliklar oilasiga mansub ekanligini bilasizmi? Yeryong'oqning inson organizmiga foydasi juda katta ekan. Uning tarkibida bosh miya, asab tizimi faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan B guruhiga oid darmondorilar bor. Shuningdek, yeryong'oq xotirani, diqqatni jamlash qobiliyatini mustahkamlaydi. Olimlarning aniqlashicha, bosh miyani quvvatlantirib turish uchun kuniga 15–20 dona qovurilgan yeryong'oq iste'mol qilish kerak. Qovurilmagani ovqat hazm qilish a'zolariga noxush ta'sir ko'rsatadi.

Ana, yeryong'oqning foydali xususiyatlarini ham bilib oldingiz. Endi qovurilgan yeryong'oq bilan yaqinlaringizni ham mehmon qilishni unutmang!



BONU tayyorladi

### JONIVORLAR OLAMI

Bolajonlar, rasmdagi jonivorning nomi nima? Zebra, deysizmi? Xuddi o'zi. Bolalikda, chiziqdari bor ot, deb atagan zebamiz. Bugun sizlarga bu ajoyib jonivor haqida qisqacha ma'lumot beramiz.



Zebrani yovvoyi cho'l oti deb ham atashadi. Haqiqatan, o'ziga xos oq-qora chiziqdarini aytmaganda, u otga o'xshab ketadi.

Tanasidagi o'ziga xos bu chiziqdar himoya vazifasini ham o'tar ekan. Zoolog olimlarning fikricha, bu chiziqdar uni yirtqichlar va ba'zi hasharotlardan himoya qiladi. Zebra toq tuyoqlilar turkumiga mansub bo'lib, Afrika savannalarida hayot kechiradi. Bu jonivorning tana uzunligi 2 metr atrofida, og'irligi 350 kilogrammgacha bo'ladi. 45 santimetrdan 58 santimetrgacha keladigan dumining uchidagi uzun yollardan iborat popugini ko'rgansizmi? U, asosan, o't-o'lanlar bilan oziqlanadi. Yaxshigina suvxo'r jonivor hisoblanadi. Ko'rish qobiliyati juda yax-

shi rivojlangan. Yugurayotganida yo'l-yo'l chiziqdarini cho'l otlari orasida ko'z ilg'amay qoladi. Soatiga ellik kilometr tezlikda chopadigan bu jonivorni tutish yirtqichlar uchun oson kechmaydi. Zebra odatda bir yilda bir marta bolalaydi. Bolasi dunyoga kelganiga o'n daqiqa ham bo'lmay oyog'ida tura oladi. Yigirma kundan keyin bemaol yurishi, qirq kundan so'ng sakray olishi mumkin. Bilasizmi, bolajonlar, zebaning g'alati bir odati bor, ob-havo juda isib ketsa, qumga yotib, ishqalanishni yoqtiradi.

Zebra odatda o'ttiz yilgacha umr ko'radi. Ammo, qimmatbaho terisi uchun ko'plab ovlanganligi tufayli hozirda ularning soni kamayib ketgan.

ZUBAYDA tayyorladi



Bosh muharrir  
Feruza JALILOVA

TAHRIR HAY'ATI:  
Omonulla YUNUSOV,  
Abdug'ani XOLBEKOV,  
Bahodir G'ANIYEV,  
Svetlana INOMOVA,  
Murtazo SULTONOV,  
Zoir ISAJONOV,  
Sa'dullo TURSINOV  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Feruza ADILOVA  
(mas'ul kotib),  
Zikrilla TESHABOYEV,  
Sobitxon TURG'UNOV

Navbatchi muharrir  
Sayyora QODIROVA  
Rassom  
Feruz MATYOQUBOV  
Dizayner  
Olovuddin ORIPOV  
Musahhih  
Nargiza ABDULLAYEVA

Manzilimiz:  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail:  
info@tongyulduzi.uz  
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi.  
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.  
Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi – 46694  
Buyurtma N: J 7849

#### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markazi  
Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga  
qarashli bo'lgan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil  
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.